

Boshqa tuyaning hikoyasi



14:42 / 29.06.2024 3280

Assalomu alaykum, siz Allohning rasuli Muhammad alayhissalomga jon dilidan xizmat qilgan Qasvo nomli tuyaning hikoyasini o'qigan edingiz. O'shanda men ham ul muborak zotning bir mo'jizalari haqida hikoya qilishni dilimga tugib qo'ygan edim. Siz kimsiz deysizmi? Men ham Payg'ambar alayhissalomning sahobalariga qarashli tuya bo'laman.

Balki hayotda siz tuyalarni faqatgina televizor orqali yoki maxsus tomoshaxonalarda ko'rgandirsiz. Hozir har bir kishi bitta yengil mashinali bo'lishni orzu qilsa, qadimda har bir erkak kishi bitta tuyali bo'lishni orzu qilardi. Ilgarilari katta-katta musobaqalarda eng katta, nufuzli sovrin tuya hisoblanardi. Hozir turli zamonaviy ulovlar ko'payib ketgani uchun bizning xizmatimizga ehtiyoj sezilmay ham qoldi.

Bizning eng xushxo'r yemishimiz yantoq. Egalarimiz o'zlaridan ortira olishsa, uncha-muncha arpa yormasidan ham berib turishardi. Arablarda hamisha suv taqchil bo'lgan. U yerda to'lib-toshib oqadigan daryolar yo'q. Shuning uchun ham Arab sahrosi degan nom olgan. Biz tuyalar bir suvga to'yib olsak, o'n-o'n besh kunlab suv ichmay sahroning jazirama issig'ida yuraveramiz. Alloh bizni ana shunaqa chidamli, qanoatli qilib yaratgan. Ba'zi kunlari qum ko'chib, shamol turib savdo karvonlari adashib qolardi. Bunday paytda karvondagilar suvsizlikdan qiynaladi.

Shunda ular nima qilishardi, deng? Bizning burundig'imizni bo'ynimizga o'rab o'z holimizga qo'yib yuborishardi. Ha, kema haydovchilar dengizda adashib qolishsa, boshqarayotgan kemani tavakkal qilib shamol qo'liga topshirib qo'ygandek. Biz ham odamlarni albatta biron-bir suvli joyga yoki quduq tepasiga boshlab borardik. Suvning hidini ellik chaqirim naridan bilardik-da. Xudo bizga ana shunaqa noyob sezgilarni ato etgan. Sal chalg'ib ketdimmi, so'zimiz nima haqda edi? Tuyalarning quturib ketishi haqida edi-a?

Men kunlardan bir kun juda yomon holga tushdim. Yeru ko'kka sig'may qolgan edim. Qimirlagan jon borki, uni oyoqlarim ostiga olib, tishlarim bilan burdalab tashlasam derdim. Qonim qaynab, og'zimdan tinimsiz oq ko'pik kelardi. O'ruqirning farqiga bormay, o'zimni to'rt tarafga urardim. Har zamon bir zamonda horib, charchab o'zimga kelib ham qolardim. Bundoq damlarda nimaga bu dardga yo'liqib qoldim, deb o'ylardim. Shunda nimagadir, kunbo'yi och-nahor ishlaganim, ekinlarga suv tashib, tunlari uxlamaganimni, buning ustiga egamning achchiq kaltaklarini yeganlarimni eslardim. Shunda qonim qaytadan qaynab, yotgan bo'lsam turib, turgan bo'lsam yugurib ketardim. Ha, o'sha menga azob bergan odamni topib, o'chimni olgim kelaverardi. Biz tuyalar qutursak, o'lardek kekchi bo'lib qolamiz. Balki biz emas, boshqa hayvonlar ham shunaqadir.

Mening bu ahvolga tushishim egamni tashvishga solib qo'ydi. Uning mendan bo'lak durustroq ulovi yo'q edi. Eshagi bor edi-yu, u bilan ekinlarni sug'orishga yetarli suv tashiy olmas, uzoq yo'llarga bora olmas edi. Eshakka yuk ortsa, tuyoqlari qumga botib qolardi. Alloh esa biz tuyalarni qum barxanlarida bermalol yuradigan qilib qo'ygan edi. Yostiqlikdek, yostiqlikdek oyoqlarimiz qattiq, toshloq yerdan ko'ra qumni xush ko'rar, maza qilib yurardik.

Mening egam Payg'ambarimizning sahobalaridan edi. U kishi bir kuni Rasulullohga bunday deb shikoyat qilib qoldi:

- Yo Rasululloh, bir tuyamiz bor edi, uy ishlariga ham ishlatardik, ekinlarimizga ham shu tuyada suv tashirdik. Uzoq yo'limiz yaqin bo'lardi. Nima bo'ldi-yu, fe'li aynib, bizni yaqiniga yo'latmay qo'ydi. O'zimiz ham, bog'larimiz ham suvsizlikdan ko'p qiynalmoqdamiz. Xurmo daraxtlari, ekinlar qurib bormoqda.

Rasululloh bu so'zlarini eshitib bir-bir qadam bosib, mening yonimga keldilar. Egam shoshib qoldi.

- Yo Rasululloh, unga yaqin bormang, u tuya emas, bamisoli quturgan bir it. Sizga tashlanib qolmasin yana.

- Yo'q, - dedilar Rasululloh, - menga bu tuya tashlanmaydi.

Ha, men hech qachon Rasulullohga tashlanmas edim. Biz jonivorlar u zotni odamlardan ham ko'proq yaxshi ko'rardik. Haq Payg'ambar ekanliklarini yaxshi bilardik. Shuning uchun ham Rasulullohning istiqbollariga shoshib o'zim yurib bordim va yerga cho'kib salom berdim.

Dardimni aytdim, «Ey Allohning Rasuli, ne qilayki, shu ahvolga tushib qoldim. Egam rost gapni aytdi, men quturdim. Ayb menda emas, meni shu kuyga solgan egamning o'zi», dedim.

Dilimdagini yashirmay Allohning Rasuliga bayon qildim. U zot mening nima deganimni va ko'nglimdan nimalar kechganini darrov angladilar va egamga:

- Tuyani ko'p ishlatib, oz yediribsan. Endi unday qilma, to'ydirib yedir, holiga qarab ishlat, - dedilar.

Ha, Allohning Rasuli haq gapni aytdilar. Undan keyin ul zoti muborak bo'ynimdan tutib, egamga topshirdilar. U kishining muborak qo'llari tegishi bilan quturish dardidan xalos bo'ldim. Oldingidan ham yuvosh tortib qoldim, egam bo'lsa bu ajib holatni ko'rib:

- Yo Rasululloh, bu aqlsiz hayvon bo'la turib, sizga tiz cho'kib sajda qilganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ha, u payg'ambarlik maqomingizni o'rniga qo'yib ado etdi. Biz inson bo'la turib nimaga sizga sajda qilmaymiz? Izn bering, men ham sajda qilay, - dedi.

- Yo'q, - dedilar Rasululloh, - odam-odamga sajda qilmaydi. Odam yaratguvchisi - Allohgagina sajda qiladi.

Mana Payg'ambarimiz mo'jizalari haqidagi mening hikoyam ham tugadi. Ko'nglim ancha bo'shadi.

Erkin bobo

«Hilol» jurnali 12(57) son